

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 32/30.12.2020.Yu.74.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY  
KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**IKRAMOV SHERZOD RAXIMDJANOVICH**

**MILLIY GVARDIYANING YETIM BOLALAR VA OTA-ONA  
QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALAR HUQUQLARI HAMDA  
MANFAATLARINI HIMOYA QILISH FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish.  
Advokatura

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)**

**Content of the abstract of the dissertation of the doctor of Philosophy (PhD)**

**Ikramov Sherzod Raximdjanoich**

Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirish..... 3

**Икрамов Шерзод Рахимджанович**

Совершенствование деятельности Национальной гвардии по защите прав и интересов детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей ..... 25

**Ikramov Sherzod Raximdjanoich**

Improving the activities of the National Guard to protect the rights and interests of orphans and children left without parental care ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 32/30.12.2020.Yu.74.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY  
KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**IKRAMOV SHERZOD RAXIMDJANOVICH**

**MILLIY GWARDIYANING YETIM BOLALAR VA OTA-ONA  
QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALAR HUQUQLARI HAMDA  
MANFAATLARINI HIMOYA QILISH FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish.  
Advokatura

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu952 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti ([www.jxu.uz](http://www.jxu.uz)) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djurayev Rustam Mirzayevich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Djurayev Ixtiyor Baxtiyorovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Djurayeva Anora Zapparovna**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy Kengashi qoshidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_:\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100109, Toshkent viloyati Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +998971 230-32-71; faks +99871 230-32-50; [jxu@umail.uz](mailto:jxu@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100109, Toshkent viloyati Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +99871 230-32-71; faks +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.X.Rustambayev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**N.I.Xayriyev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**M.B.Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qilish va ularning huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, "jahonda 140 milliondan ortiq yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar mavjud bo'lib"<sup>1</sup>, "ularning 2,7 millioni maktab-internatlarida yashamoqda"<sup>2</sup>. "2021-yilda 10-19 yosh oralig'idagi yetim bolalar yoki ota-ona qarovsiz qolgan bolalarning o'limi yillik 46.000 nafardan oshiqni tashkil etib, bu har 11 daqiqada bir bolaning dunyodan ko'z yumishiga tengdir"<sup>3</sup>. Mazkur raqamlar dunyoda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishni va ularning hayotini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Jahonda bola huquqlarini qay darajada ta'minlanayotganligi hamda davlatlar bola huquqlarini ro'yobga chiqarishga qay tarzda intilayotganligini aniqlaydigan "KidsRight Indeks" xalqaro reytingida bolaning yashash, sog'liq, ta'lim olish, himoyalani hamda bola huquqlari uchun qulay muhit yaratish kabi mezonlar orqali baholanadi hamda "2022-yilda Islandiya (1), Shvetsiya (2), Finlandiya (3), Qozog'iston (20), Turkmaniston (63), Rossiya (92), Qirg'iziston (93), Tojikiston (105) O'zbekiston 182 ta davlat orasida 88-o'rinni egalladi"<sup>4</sup>. Bu esa yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini Milliy gvardiya tomonidan himoya qilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini amalga oshirish maqsadida joriy etilgan "Mehr daftari" elektron platformasiga **7 526 nafar** bola ro'yxatga kiritilib, faqatgina 756 nafarining murojaatlari ijobiy hal etilgan<sup>5</sup>. Mamlakatimizda so'nggi "11 yil ichida 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan **3 637 nafar** sobiq tarbiyalanuvchilari hayoti o'rganilganda, ularning jamiyatga moslashish davrida turli qiyinchiliklarga duch kelganliklari, xususan, shu davr mobaynida bitiruvchilarning **1 473 nafari** ish bilan ta'minlanmagani, **1 584 nafarining** uy-joyi yo'qligi, **2 588 nafari** oila qurmagan, **22 nafari** vafot etgani, **43 nafari** jinoiy javobgarlikka tortilgani, **347 nafari** xorijiy davlatlarga chiqib ketgani ma'lum bo'ldi"<sup>6</sup>. Yuqoridagi statistik raqamlar tahlili mazkur sohani ilmiy jihatdan tadqiq etish va yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi (2020), "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2008), "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi (2014) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasining "Oila" kodeksi (1998), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlarini ta'minlash tizimini

<sup>1</sup> [https://www.unicef.org/media/media\\_45279.html](https://www.unicef.org/media/media_45279.html) – murojaat sanasi 29.12.2022-yil

<sup>2</sup> <https://www.unicef.org/protection/children-in-alternative-care-> murojaat sanasi 12.05.2023-yil

<sup>3</sup> The state of the world's children 2021 on my mind – Promoting, protecting and caring for children's mental health // <http://www.unicef.org/sowc>

<sup>4</sup> <https://www.kidsrights.org/research/kidsrights-index/> - murojaat sanasi 10.02.2023 yil.

<sup>5</sup> Xudoyberganova D.Z. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. - 425 b.

<sup>6</sup> Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining 2021-yil 6-dekabrda kengaytirilgan videoselektor majlisining 31-son bayonidan.

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) Farmoni, "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining "Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020), "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi (2014) qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda bolalar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish, bola huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning turli huquq sohalari bo'yicha himoyasini takomillashtirish masalalari O.D.Allanazarov, Z.A.Amirov, N.A.Ashurova, N.O'.Ashurova, D.Sh.Ibragimov, A.K.Kadrekova, Q.Q.Matkarimov, M.X.Rustambayev, B.A.Umirzakov va M.B.Usmonovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyasi va ularning ijtimoiy muhitga moslashishi mexanizmini takomillashtirishga oid masalalarning ayrim jihatlari D.I.Babajanova, N.N.Dusmuxamedova, E.X.Zaitov, D.R.Karimova, D.A.Madjidova, Muhammad ibn Mahmud Ustrushaniy, R.J.Ro'ziyev, R.I.Rahimova, G.M.Salixova, D.G'.Sabirova, B.M.Ubaydullayeva, Y.A.Umarbekova, M.B.Usmonov, D.Z.Ernazarov, A.T.Yunusova, N.J.Yusupova va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

MDHga a'zo davlatlarda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish, xususan, yetim bolalarni oilaviy muhitga bo'lgan va ijtimoiy huquqlari hamda rivojlangan mamlakatlarda bola huquqlari himoyasi A.V.Grishin, D.P.Jerebchikov, A.K.Mamayeva, G.Mixaleva, Ye.Markovicheva, N.A.Neklyudov, N.A.Nalizko, Ye.P.Lapina, V.L.Kabanov, I.A.Nesmeyanova, D.R.Guseynov, S.Yu.Lutoshkina, A.M.Dinorshoyev, A.M.Spivak, N.A.Kazibekova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlar David Archard, N.Peter, C.P.Cohen, K.Olson, Brigitte Nshimyimana, Madeleine Ahlgren, D.Jakobi, Thoko Kaime, Josefine Carlssonlar va boshqalar tomonidan yetim bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni takomillashtirishga oid muayyan masalalari dissertatsiya va monografik darajada tadqiq etilgan<sup>1</sup>.

Biroq, mamlakatimizda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini Milliy gvardiya tomonidan himoya qilinishini takomillashtirish masalalari mavzusi maxsus o'rganilmagan, alohida monografik tadqiqot olib borilmagan.

---

<sup>1</sup> Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari kompleks dasturining “Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatini ijtimoiy zaruriyatini asoslash;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini Milliy gvardiya tomonidan himoya qilish faoliyatini huquqiy tartibga solinishini tadqiq etish;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning institutsional joylashtirishda mas'ul tashkilotlar bilan Milliy gvardiyaning hamkorligi va huquqiy muammolarni tadqiq etish;

Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodim)larining yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi huquqiy holati hamda muammolarini tahlil qilish;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy va huquqiy himoyasidagi muammolar va amaliyotini o'rganish;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish;

Milliy gvardiya organlari tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada bilishning ilmiy usullaridan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so'rovlari, statistik ma'lumotlarning tizimli tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va boshqa usullardan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Milliy gvardiyaning vakolatli xodimlari yetim bolalarning va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini baholab, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, ularni ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllari (oilaviy bolalar uylarini tashkil etish)ni qo'llash choralari ko'rish lozimligi asoslantirilgan;

Milliy gvardiyaning vakili Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarning "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari, oliy harbiy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim muassasalariga nomzodlar sifatida tayyorlash uchun sharoit yaratish majburiyatini qayd etish zarurati asoslab berilgan;

"Mehr daftari" jamg'armasi mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari etib, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni hayotga tayyorlash, ularning ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, ayniqsa nogiron va surunkali kasalliklari bo'lgan bolalarning sog'lig'ini tiklash va saqlash kabilarni belgilash zarurati asoslantirilgan;

yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida ular haqidagi ma'lumotlarni kiritish, idoralararo ma'lumotlar almashishni tashkil etish hamda "Mehr daftari" tizimi bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning samaradorligini monitoring qilinishi Milliy gvardiyaning hududiy bo'linmalari tomonidan nazorat qilinishi zarurati asoslab berilgan;

Milliy gvardiyaning mas'ul vakili Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasida ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda bolalar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish hamda jinoyatlarning barvaqt oldini olish choralari ko'rishi lozimligi asoslantirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga Milliy gvardiyani vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashi asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanishi asoslantirilgan;

Milliy gvardiya organlarining yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni ilm olishlarini rag'batlantirish va oliy ta'lim bilan qamrab olish, shuningdek, ularni kasbga yo'naltirish borasidagi ishlarni jadallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qarori loyihasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonuni 7-moddasiga Milliy gvardiyani vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari qatoriga kiritilishi hamda 12<sup>1</sup>-moddada mazkur vakolatlar ko'rsatib o'tilishi lozimligi bo'yicha qonunchilikka o'zgartirish kiritish lozimligi asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni 9-moddasida nazarda tutilgan “Yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar” qatoriga Milliy gvardiya organlarini kiritish va tegishli vakolatlarni belgilash zarurligi qayd etilgan;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni “Oilaviy bolalar uyiga” joylashtirish shakli O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinishi lozimligi asoslantirilgan;

yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oliy ta‘lim, xususan, harbiy oliy ta‘lim bilan qamrab olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori loyihasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyotiga asoslangan. Bundan tashqari, sotsiologik tadqiqotlar, anketa so‘rovi (220 nafar amaliyot xodimlari o‘rtasida) o‘tkazilgan, statistik ma‘lumotlar va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan 50 dan ortiq yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya tizimini o‘rganish bilan bog‘liq 2021–2022-yillarda o‘tkazgan tekshirish va tahlil materiallari natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishdagi, xulosa, taklif va tavsiyalardan “Fuqarolik va oila huquqi”, “Bola huquqi” hamda “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Advokatura” fanlarini takomillashtirishda, sohaga oid nazariy bilimlarni boyitish va yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatini tashkil etishda, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, mazkur qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda va tutingan ota-onalarni, Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari va talabalari, o‘quv-tarbiya muassasalariga birlashtirilgan Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchi va xodimlarini o‘qitishda, ularga “Fuqarolik va oila huquqi”, “Bola huquqi” hamda “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Advokatura” fanlari bo‘yicha o‘quv va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda hamda bu yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

Milliy gvardiyaning vakolatli xodimlari yetim bolalarning va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ta‘lim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini baholab, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, ularni ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo‘llash choralarini ko‘rish lozimligi borasidagi takliflari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil

16-avgustdagi 451-son qarori bilan tasdiqlangan “Oilaviy bolalar uyi to‘g‘risidagi Nizom”ning 22-bandini ishlab chiqishda o‘z ifodasini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2023-yil 24-apreldagi 12/2403-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaviy bolalar uyida joylardagi bolalarni himoya qilish shu‘balari bilan hamkorlikda ularning huquqlarini himoya qilishda ishtirok etishining huquqiy asoslari takomillashishiga xizmat qilgan;

Milliy gvardiyaning vakili Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarini “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari, oliy harbiy ta‘lim muassasalari va boshqa ta‘lim muassasalariga nomzodlar sifatida tayyorlash uchun sharoit yaratishi to‘g‘risidagi takliflari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2021-yil 23-avgustdagi 268-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasi direktorining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosarining lavozim yo‘riqnomasi”ning “Birinchi o‘rinbosarning lavozim majburiyatlari” deb nomlangan 3-bobi “Birinchi o‘rinbosarning lavozim majburiyatlari quyidagilardan iborat” nomli 5-bandi 11-xatboshisini shakllantirilishida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 03-06/2-3415-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi Milliy gvardiyaning faoliyatida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ta‘lim olish huquqi ta‘minlanishiga va bolalarni oliy ta‘lim bilan qamrab olishga hamda kasb-hunarga ega bo‘lishlariga xizmat qilgan;

“Mehr daftari” jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari sifatida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni hayotga tayyorlash, ularning ta‘lim-tarbiyasini tashkil etish, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta‘minlash, ayniqsa bu toifadagi nogiron va surunkali kasalliklari bo‘lgan bolalarning sog‘lig‘ini tiklash va saqlash etib belgilanishi zarurligi haqidagi takliflari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 26-son qarori bilan tasdiqlangan “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 10-bandida o‘z ifodasini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2023-yil 24-apreldagi 12/2403-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy qilinishi yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni bilim olish, mehnat qilish, sog‘lig‘ini saqlash va uy-joyga bo‘lgan huquqlari ta‘minlanish darajasi oshishiga xizmat qilgan;

“Mehr daftari” axborot tizimiga ma‘lumotlarning o‘z vaqtida kiritilishi va haqqoniyligi Milliy gvardiyaning hududiy bo‘linmalari tomonidan nazorat qilinishi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 26-son qarori bilan tasdiqlangan “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 15-bandida o‘z ifodasini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2023-yil 24-apreldagi 12/2403-son dalolatnomasi*). Bu taklifning joriy etilishi Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqlari hamda manfaatlarini himoya

qilish faoliyatini takomillashishiga, shu bilan birga, “Mehr daftari” jamg‘armasi mablag‘larini maqsadli sarflanishini nazorat qilish uchun huquqiy asos yaratgan;

Milliy gvardiyaning mas’ul vakili Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasida Ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda bolalar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish hamda jinoyatlarning barvaqt oldini olish choralari ko‘rishi lozimligi to‘g‘risidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2021-yil 23-avgustdagi 268-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasi direktorining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosarining lavozim yo‘riqnomasi”ning 3-bobi “Birinchi o‘rinbosarining lavozim majburiyatlari quyidagilardan iborat” nomli 5-bandi 10-xatboshisini shakllantirilishida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 03-06/2-3415-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishida boshqa idoralar bilan hamkorligini ta’minlash hamda ushbu bolalarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish uchun huquqiy asos yaratilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 2 ta xalqaro, 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta (shundan 1 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 152 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatining nazariy huquqiy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, unda mazkur institutning ijtimoiy zaruriyati, huquqiy tartibga solinishi va bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi yoritilgan.

Bugungi kunda mehr-ko‘makka muhtoj yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash kabi vazifalarni bajarishda Milliy gvardiya muhim o‘ringa ega bo‘ldi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarni ijtimoiy himoya qilish va ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona

qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5215-sonli qarori asosida vasiylik va homiylik organlari bilan birgalikda Milliy gvardiyaga ham ushbu sohada bir qancha muhim vazifalar yuklatildi.

Dissertantning fikriga ko'ra, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha bir qator huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq bu borada ishlar yetarli bo'lmaganligi, endilikda bu borada kontingentni himoya qilishda mutlaqo o'zgacha yondashuv asosidagi tizim shakllantirish hamda ilgari qabul qilingan normativ hujjatlarni ishlash mexanizmini jadallashtirish lozimligi ma'lum bo'lmoqda. Dastlab, mazkur muassasalarda tarbiyalanuvchilar maktab dasturlari asosida olib borilgan ta'lim-tarbiya jarayonida ularni jamiyat uchun yetuk inson bo'lib kamolga yetkazish ishlariga panja ortidan qaralganligi hamda tarbiyaviy ishlarning sifati o'z holiga tashlab qo'yilganligini keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotiga ko'ra, 2019–2021-yillarda mamlakatimizdagi mehribonlik uylari rahbarlari hamda tarbiyalanuvchilariga nisbatan jami 15 ta jinoyat ishi doirasida 20 nafar shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Sud tomonidan aybli deb topilgan mazkur shaxslarning 3 nafari mansabdor shaxs, 1 nafari ishchi, 16 nafari muassasa tarbiyalanuvchilari bo'lib, ularning qilmishlari jinoyatlar turlari bo'yicha tahlil qilinganda, Jinoyat kodeksining 97-moddasi (Qasddan odam o'ldirish) – 1 nafari, 169-moddasi (o'g'irlik) – 11 nafari, 167-moddasi (O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish) – 4 nafari, 128-moddasi (O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish) – 2 nafari, 104-moddasi (Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish) – 1 nafari va boshqa moddalar bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan<sup>1</sup>.

Shuningdek, muallif, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning aksariyati jinsiy tajovuzga uchrayotganligi bu masalani naqadar jiddiy ekanligidan dalolat berishini ta'kidlaydi. Xususan, Xorazm viloyatida oilaviy bolalar uyi rahbari X.Yu. o'z tarbiyasiga olgan 3 nafar voyaga yetmagan qizlarni 2021-yil may oyidan 2022-yil fevral oyiga qadar, viloyat Adliya boshqarmasining boshlig'i hamda tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i bilan jinsiy aloqa qilishga majburlab kelganligi holati jamiyatda kuchli rezonansga sabab bo'ldi<sup>2</sup>.

Muallif mazkur masalalarni muhokama qilgan holda, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquq va manfaatlarini ta'minlashda ishtirok etuvchi ba'zi davlat muassasalari o'zlariga yuklatilgan funksional vazifalarni bajarmasligiga yoki boshqa talon-tarojlik holatlari sababli faoliyatni isloh qilish zaruratini ko'rsatib berganligini bildiradi va bir qancha rasmiy faktlarni keltirib o'tadi.

Sanab o'tilgan salbiy holatlar va yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashga mas'ul muassasalarning qoniqarsiz faoliyati mamlakatimizda bir qator huquqiy chora-tadbirlar ko'rilishiga turtki bo'ldi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4185-sonli qarori va mazkur qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, manfaatdor vazirliklar, idoralar,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 14-martdagi 07/13-2029-97-sonli ma'lumotnomasi.

<sup>2</sup> URL: <https://kun.uz/80274527> "Xorazmda davlat amaldorlari mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan jinsiy aloqa qilib kelgani ma'lum bo'ldi". murojaat sanasi: 12.04.2023-yil.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda oila institutini mustahkamlash, ijtimoiy yetimlikning oldini olish, shuningdek, “Mehribonlik” uylarini bosqichma-bosqich kam komplektli bolalar shaharchalariga hamda ijtimoiy muassasalarning boshqa muqobil shakllariga o‘tkazish vazifasi yuklatildi.

Muallif, aynan mazkur qaror ushbu sohada tub burilishga sabab bo‘lganligini, chunki qaror bilan bir qancha tashkilotlarga oila institutini mustahkamlash, ijtimoiy yetimlikning oldini olish va “Mehribonlik” uylarini noinstitutallashtirish vazifasi qo‘yilganligini, soddaroq qilib ifodalaganda, biz avval ijtimoiy yetimlik yoki ushbu institutning kelib chiqqan salbiy oqibati bilan kurashgan bo‘lsak, bundan buyon qaror bilan belgilangan vazifalar doirasida yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning kelajakda jamiyatga moslashishlari uchun salbiy ta’sir qiluvchi omillar hamda sabablarni bartaraf etilishi lozimligi belgilab qo‘yilganligini keltiradi.

Respublika miqyosida faoliyat yuritayotgan mehribonlik uylaridan farzand asrab olish istagida bo‘lgan oilalarning soni 5 mingdan ziyod bo‘lib, ayni vaqtda oilaviy bolalar uyini tashkil etish va bolalarni oila tarbiyasiga olish istagida bo‘lganlar soni 2.700 dan ortiqni tashkil etgan. Yuqoridagi raqamlar tahlili, bugungi kunda mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan har bir nafar bolaga 10 ta oila yoki farzand asrab olish istagida bo‘lgan otanalar to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rsatadi.

Dissertant, bolani ma’naviy barkamol va jamiyatga to‘la moslashishida oilaviy muhitda yoki oilaviy muhitga yaqin sharoitda tarbiyalanishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi va shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori asosida vasiylik va homiylik organlari bilan birgalikda Milliy gvardiyaga ham sohada muhim vazifalar yuklatilganligini optimal qaror sifatida baholaydi.

Shuningdek, bugungi kunda Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquq va manfaatlarini ta’minlashdagi vazifalari joriy normativ-huquqiy hujjatlar doirasida to‘liq qamrab olinmaganligi sababli huquqiy, ijtimoiy va boshqa bir qancha muammolarni tadqiq etish zaruriyati mavjud.

Muallif, Prezidentning 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori 19-bandida manfaatdor vazirlik va idoralar ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi lozimligi to‘g‘risida belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar bir qancha qonun va qonunosti hujjatlarga yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini ta’minlashda Milliy gvardiya organlari subyekt sifatida kiritilmaganligini tanqid qilib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlarda Milliy gvardiyaning mazkur davlat siyosati sohasidagi vakolatlarini belgilash va boshqa bir qancha qonun va qonunosti hujjatlar o‘rtasidagi huquqiy kolliziyalarni bartaraf etish yoki mavjud huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ekanligini asoslaydi. Shu bilan birga, mavzuning ijtimoiy zarurati bo‘yicha qator asoslarni keltirib, yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaviy muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlash maqsadida tashkil etilgan oilaviy bolalar uylaridagi muhitni

nazorat qilish, moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash bo'yicha vujudga keladigan ayrim ijtimoiy munosabatlarni huquqiy qamrab olish bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ekanligini qayd etadi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatini huquqiy tartibga solinishi xalqaro darajada dastlab "Bola huquqlari bo'yicha Jeneva deklaratsiyasi"da qayd qilingan bo'lsa, keyinchalik bu borada asosiy xalqaro huquqiy manba sanalgan "Bola huquqlari Konvensiyasi" qabul qilingan. Shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari "Eng kichik yosh to'g'risidagi Konvensiya"da, "Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi 182-sonli Konvensiya"da, "Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining ko'rsatmalari (Ar-Riyod ko'rsatmalari)"da va bir qator boshqa hujjatlarda o'z aksini topadi. Muallif, umume'tirof etilgan qoidalar, eng avvalo, milliy qonunchilikda o'z ifodasini topishi va tadqiqot natijalari mazkur qoidalarga muvofiq kelishi lozimligini qayd etgan.

Dissertant, Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatini huquqiy tartibga solishda asosiy normativ huquqiy hujjatlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5215 va "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5216-sonli Qarorlari ekanligini qayd etadi.

Shu bois, tadqiqot davomida "Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyati", "Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilishda vakolatli organlar bilan hamkorligi", "Topilgan bola", "Qoldirib ketilgan bola" va boshqa bir qancha atamalarning ta'rifi bugungi kunga qadar o'rganilmaganligi va ularni yuridik ta'rifi dissertatsiya mavzusini o'rganishda ahamiyatli ekanligi sababli, mavzuga oid olimlarning fikrlari hamda ensiklopedik ta'riflarni tahlil qilib mazkur tushunchalarga mualliflik ta'riflarini shakllantirgan.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish doirasida Shvetsiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Latviya, Chexiya, Bahrayn, Finlandiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Belorussiya, Ukraina, Qozog'iston va boshqa bir qancha mamlakatlarning qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilingan. E'tiborli jihat sifatida, ko'plab xorijiy davlatlarda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqlar amalga oshirilishini oldini olish maqsadida, mamlakatda ijtimoiy xizmatlarning vakolatlari kengaytirilgan va alohida vazirlik yoki tizim orqali tartibga solinadi. Shuningdek, yetim bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida 24/7 rejimida ishlovchi "Ishonch" telefonlari (Shvetsiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya), jismoniy shaxslarning ham ma'lum hududda o'zining jamg'armasi yoki jamoaning qo'llab-quvvatlashi natijasida mazkur bolalar huquqlarini himoya qiladigan tashkilot tuzishi mumkinligi (Buyuk Britaniya), foster (patronaj) tarbiyasi milliy standartlari, "uchlik yondoshuvi" prinsipiga asoslangan guruh faoliyati (AQSh, San-Fransisko), bolalarning harbiy qismda ta'lim-tarbiya olishi (Rossiya) va

istalmagan homila tug‘ilganida onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirish hollarini oldini olish uchun tashkil etilgan maxsus qutilar (baby box) tizimi joriy etilganligini keltiradi. Dissertant, xorij mamlakatlarining yetim bolalarni himoya qilishda davlat organlarining rolini tahlil qilib, ularda asosan ijtimoiy xizmatlar tizimi bu yo‘nalishni muvofiqlashtirishini qayd qilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faqatgina o‘z yo‘nalishidan kelib chiqqan holda yetim bolalarning buzilgan huquqlarini tiklash yoki ularning manfaatlarini himoya qilishda ishtiroki mavjudligini keltiradi hamda bu borada ijtimoiy xizmatlar tizimi barcha zaruriy choralarni ko‘rish bo‘yicha o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘zi mustaqil ravishda amalga oshirishi bilan yagona davlat siyosatini yuritishi e‘tiborga sazovor ekanligini alohida qayd etadi.

Ishning 2-bobi **“Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyati tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, unda mazkur kontingentni institutsional joylashtirishda mas‘ul tashkilotlar bilan Milliy gvardiyaning hamkorligi, bolalarning ijtimoiy va huquqiy himoyasidagi muammolar, Milliy gvardiyaning mazkur munosabatlardagi huquqiy holati va amaliyot tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqotchi, bugungi kunda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning barcha shakllarini tahlil qilib, mazkur joylashtirishlarni huquqiy tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi asosiy huquqiy hujjat hisoblanishi, biroq Oila kodeksida bolalarni “Oilaviy bolalar uyiga joylashtirish” shakli nazarda tutilmaganligi sababli, bugungi kunda bu borada huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish zarurati mavjud, deb hisoblaydi. Shuningdek, mazkur munosabatlarni tartibga solishda bir qancha qonun hujjatlariga murojaat qilish lozimligi va yagona huquqiy imperativ yondashuvni mavjud emasligi huquq nuqtayi nazaridan ham qiyinchiliklar hamda xatolarni keltirib chiqarishini ta’kidlab, bu borada Oila kodeksining 150-moddasiga yetim bolalarni joylashtirishning mavjud barcha shakllari va bolani oilaviy bolalar uyiga joylashtirishning barcha qoidalarini 22<sup>1</sup>-bob sifatida kiritishni hamda O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasida “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning shakllari” sifatida “Oilaviy bolalar uyi”ga joylashtirish bo‘yicha tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish lozimligi to‘g‘risida xulosaga kelgan.

Yetim bolalarni huquq va manfaatlarini ta’minlashda Milliy gvardiyaning vazifalari normativ huquqiy hujjatlarda belgilanganiga qadar, mamlakatimizda faqatgina Xorazm viloyatida 5 ta oilaviy bolalar uyi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2023-yil 23-fevral holatiga 139 ta Oilaviy bolalar uylarida 800 nafardan oshiq bolalar oila muhitida tarbiyalanmoqda. Qaror bilan respublikadagi **16 ta** Mehribonlik uylari, **4 ta** Bolalar shaharchalari, **3 ta** “SOS – O‘zbekiston bolalar mahallalari” va **13 ta** Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi Bolalar uylari Milliy gvardiyaga birlashtirildi.

Muallif, mavjud muassasalarda sharoit va muhitni nazorat qilish zarurati va ushbu ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni psixologik, moddiy, ijtimoiy va eng muhimi huquqiy ta’minlash zarurati vujudga kelganligini bir qancha faktlar bilan asoslaydi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldagi “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 158-son qarorini yangi tahrirda qabul qilish va Nizomda Milliy gvardiyaning aniq vakolatlarini qayd etgan holda quyidagi bandlar bilan to‘ldirish zarurati mavjudligini keltiradi.

*Birinchi*, oilaviy bolalar uylarini yuridik shaxs maqomisiz tashkil etish, bolalar uchun ajratilgan oylik xarajat mablag'larini bank plastik kartalari orqali sarflash tizimini joriy qilish;

*ikkinchi*, Milliy gvardiya tegishli organlar bilan hamkorlikda oilaviy bolalar uylarini tashkil etishga ko'maklashishi, tutingan ota-onalarga zarur tashkiliy yordamlar ko'rsatishi hamda har oyda kamida bir marotaba bolalarning turmushi va tarbiyalanishi sharoitlarini kuzatib borishi;

*uchinchi*, oilaviy bolalar uyiga tarbiyaga olingan yetim bolalarga (yigirma besh yoshga to'lmagan) Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchi va xodimlari birlashtirilishi;

*to'rtinchi*, oilaviy bolalar uyi ochish istagida bo'lgan O'zbekiston Respublikasining nikohdan o'tgan, 35 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan fuqarolari tutingan ota-onalar bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi qoidalar;

*beshinchi*, tutingan ota-onalar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mazkur jarayonni muvofiqlashtirib borishi va boshqa qoidalar qayd etilishi lozim.

Shuningdek, tadqiqotchi, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasi kabi institutsional muassasalardan Oilaviy bolalar uylariga o'tkazilishida ularning har tomonlama tayyor bo'lishini ta'minlash, muassasalarda ushbu kontingentni huquqlari va manfaatlarini ta'minlash maqsadida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari orasidan tayinlanayotgan mazkur muassasalar direktorining tarbiyaviy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosarlari lavozimi yo'riqnomasida bir qancha majburiyat va vakolatlarni aniq qayd etish zarurati mavjudligini asoslaydi hamda quyidagi huquq, majburiyat va vakolatlarni qayd etish birlamchi ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi.

Xususan, tarbiyalanuvchilarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga qaratilgan individual dasturlar ishlab chiqilishini tashkil etish;

– Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari bilan qizlarning ta'lim-tarbiyasi, ularni balog'atga va turmushga tayyorlash sohasida hamkorlik qilish;

– Ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda bolalar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish hamda jinoyatlarning barvaqt oldini olish choralari ko'rish;

– Tarbiyalanuvchilarning "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari, oliy harbiy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim muassasalariga nomzodlarni tayyorlash uchun sharoit yaratish

– Xalq ta'limi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda muassasaning 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan bitiruvchilarining mustaqil hayotga qadam qo'yishlariga (ta'lim olish, uy-joy bilan ta'minlash, oila qurish, kasbga yo'naltirish bo'yicha) yordam ko'rsatish hamda nazorat qilish va boshqalar.

Shu bilan birga, mazkur bobda tadqiqotchi, "Bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi" va "Yetim bola va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi" kabi tushunchalarga mualliflik ta'riflarini ishlab chiqqan.

Muallif, mazkur institutning huquqiy tartibga solinishi bir necha o'nlab qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinishi, bolaning himoyasida juda ko'plab hujjatlarga murojaat qilish zarurati mavjudligi va mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kodeksi” va “Bolalar ombudsmani to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilinishi maqsadga muvofiq sanaydi hamda mazkur tarqoq qonun hujjatlarini kodifikatsiyalashtirish orqali birlashtirilishi bu borada vakolatli davlat idoralarning vazifalarini aniq belgilab berilishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Dissertant ushbu bobda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlari himoya qilish amaliyotini o‘rganib, bir qancha muammolarga urg‘u beradi. Xususan, bolani vasiylikka va homiylikka olishda ijtimoiy qiyin ahvoldagi shaxslar nafaqa bilan ta’minlanmayotganligi, patronatga olingan yetim bolalarni yashash xarajatlari uchun pul mablag‘lari miqdorini oilaviy bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalarnikiga nisbatan past ekanligi, ularni sog‘lomlashtirish yoki madaniy hordiq chiqarishlari borasidagi notengliklar kabi omillar sabab tegishli nizomlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida xulosaga kelgan. Bu borada boshqa amaliy muammolar ham tahlil qilinib, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoyasini tashkil etish va ularning natijadorligini oshirish mexanizmini baholovchi tartibni o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilishni taklif etadi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan bo‘lib unda, mazkur toifa bolalarni huquqlari va qonuniy manfaatlarini Milliy gvardiya tomonidan huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Dissertant, mazkur bobda joylashtirish shaklidan qat’i nazar yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga zo‘ravonlik va ruhiy ta’sir o‘tkazilganligi yoki ularga nisbatan yetkazilgan ma’naviy yoki jismoniy ta’sir uchun Milliy gvardiya harbiy xizmatchi yoki xodimlariga tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv olib borish vakolatini berish lozimligini ta’kidlab, buni bir qancha qonun va qonunosti hujjatlarida Milliy gvardiyaga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlar bilan hamda bolalarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir etishi mumkinligi bilan asoslaydi va O‘zbekiston Respublikasi JPKga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish lozimligi to‘g‘risidagi xulosaga kelgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvarda qabul qilingan “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-364-sonli Qonunning 21-moddasi 9-xatboshisida, vasiy yoki homiy bo‘lish istagini bildirgan shaxs haqidagi vasiylik va homiylik organi tomonidan olingan ma’lumotlar maxfiy bo‘lib, oshkor qilinmasligi va 33-moddaning 8-xatboshisida “o‘z shaxsiy hayotiga taalluqli axborotning maxfiyligi ta’minlanishi” belgilab qo‘yilgan. Shunday bo‘lsa-da, qonunning asosiy prinsiplari qatorida ushbu qoida mustahkamlanmaganligini farzandlikka olish bilan bog‘liq jinoiy-huquqiy munosabatlarda o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Bundan tashqari, farzandlikka olish asosan Milliy gvardiyaga birlashtirilgan muassasalarda amalga oshirilishini inobatga olgan holda va bu kabi ishlar bo‘yicha surishtiruv olib borishda sir tutilishi lozim bo‘lgan farzandlikka olishga oid ma’lumotlar tarqalish doirasini cheklash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi JKning 125-moddasi (Farzandlikka olish sirini oshkor qilish) da nazarda tutilgan jinoyat ishlarini Milliy gvardiyaning surishtiruv vakolatiga qayta taqsimlash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Muallif, mazkur bobda Milliy gvardiyaning ayni faoliyatni huquqiy ta'minlash hamda mavjud huquqiy bo'shliqlarni oldini olish uchun "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga, "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'RQ-364-sonli Qonunning 7-moddasiga va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozimligini asoslagan. Shuningdek, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda ularning jismonan sog'lom va ma'nan barkamol bo'lib yetishishlari uchun bir qancha tashkiliy-huquqiy, xususan, "*Bola huquqlari himoyasi uchun*" ko'krak nishoni ta'sis etish va ularni o'qitish hamda tarbiyalashda professor-o'qituvchilarga qo'shimcha haq to'lash orqali rag'batlantirish amaliyotini yo'lga qo'yishni maqsadga muvofiq, deb biladi.

Dissertant mazkur bobda, bu toifa bolalarning ta'lim olishi, xususan, ularni oliy ta'lim bilan qamrab olish dolzarb ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, bu borada mavjud barcha muammolarning yechimi hisoblanishi borasidagi fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5216-sonli Qarorining 11-bandi asosida oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan bir foizgacha davlat granti asosidagi qabul kvotalari ajratilishi borasidagi qarorni ijtimoiy jihatdan to'g'ri qaror sifatida baholaydi.

Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022/2023-o'quv yilida **1 790** nafar yetim bolalar o'qishga topshirgan bo'lib, ulardan **861** nafari yetarli ball to'play olmagan va talabalikka tavsiya etilmagan.

Muallif, talabalikka tavsiya etilmagan yetim bolalarni oliy ta'lim bilan qamrab olinmaganligi bu borada barcha tashkiliy-huquqiy islohotlarning samarasini tushirib yuborishini ta'kidlab, ularni imtiyoz asosida imtihonsiz oliy ta'lim va salomatligi jihatidan yaroqli bo'lganlarini oliy harbiy ta'limga qabul qilinishi lozimligi borasidagi takliflarni ilgari suradi hamda ayrim qonunosti hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori loyihasini ishlab chiqqan (*dissertatsiya ishiga 3-ilova*).

Dissertant, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquq va manfaatlarini himoya qilishda muammolarni tizimli va uzluksiz hal etib borishgina bu borada samara berishi mumkinligini, aks holda Milliy gvardiya organlariga yuklatilgan ushbu vazifalar ijrosi yetarlicha ta'minlanmasligiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bois "Mehr daftari" tizimini amaliyotga joriy etish, bunda mazkur tizim nima ekanligi va uning tushunchasi o'zida nimalarni aks etishi zarurligi qonunosti hujjatlarda aks etishi lozimligini tadqiq etgan.

Muallif, "Mehr daftari tizimi"ga ta'rif berib, ... – *yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishga hamda jamiyatning ijtimoiylashuviga ko'maklashish, ularni vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan oilalarni rag'batlantirish, shuningdek, bolalarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lish sabablarini har tomonlama o'rganish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish va ularning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan tizim*, deb ta'kidlaydi.

Shuningdek, bu borada ro'yxatning elektron platforma orqali shakllantirilishi lozimligi, uni "Mehr daftari elektron platforma"si deb nomlanishi hamda ushbu platformaning yaratilishi, yuritilishi, axborot tizimiga ma'lumotlarning o'z vaqtida kiritilishi va haqqoniyligi nazorati aynan Milliy gvardiya organlari tomonidan amalga oshirilishi hamkor tashkilotlar o'rtasida vazifalar to'g'ri taqsimlanishi va o'zaro tiyilib turish prinsipiga muvofiq kelishiga ko'ra mos va ishlarning samaradorligini oshirishga imkon berishi borasidagi xulosaga kelingan. Muallif yana qo'shimcha sifatida "Mehr daftari"ga kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi vasiylik kengashining tasdiqlash va unda Milliy gvardiya hududiy boshqarma boshliqlarini mazkur kengash raisi o'rinbosari sifatida qayd etish zaruratini asoslaydi.

## XULOSA

Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirishga doir tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy-nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha xulosalarga kelindi:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

**1. Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyati bu** – Oilaviy bolalar uylari, "Mehribonlik" uylari, Bolalar uyi va SOS – bolalar mahallalari tarbiyalanuvchilari, shuningdek, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiya (patronat)ga olingan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka olish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo'llash choralari ko'rish, ularni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish, sport turlariga qiziqtirish, kasb-hunarga o'rgatish, oliy ta'lim va harbiy ta'lim bilan qamrab olish, muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, uy-joy bilan ta'minlanishini va orzu-istaklari amalga oshishiga ko'maklashishdan iborat harakatlar majmuidir.

**2. Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilishda vakolatli organlar bilan hamkorligi deganda** – qonunchilikka ko'ra yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish faoliyati tushuniladi.

**3. Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilishga biriktirilgan harbiy xizmatchisi (xodimi) bu** – "Mehribonlik" uylari, oilaviy bolalar uylari va Bolalar uylariga hamda vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) bolalar huquqlarini himoya qilishga biriktirilgan, vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikdagi faoliyatni olib borishga mas'ul harbiy xizmatchi (xodim).

**4. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga oid shaxsiy ma‘lumotlarni maxfiylikini ta‘minlash** – jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, vasiylik va homiylik organlari tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga oid shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiylikiga rioya etilishi, ularni tarqatilmashligi, oshkor etilmashligi, uchinchi shaxslarga berilmashligi maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.

**5. Bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqi deganda** – bolaning o‘z ota-onasi, aka-uka, opa-singil, bobo-buvilari bilan birga ularning hamrohligida, oila bag‘rida yashashi va milliy qadriyat, an‘ana hamda urf-odatlar ruhida tarbiyalanishi, voyaga yetishi, o‘z ota-onasini bilishi, ularning erkalashlari va g‘amxo‘rligidan foydalanishi, har qanday sharoitda ham ular bilan ko‘rishishi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi tushuniladi.

**6. Yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolaning oilaviy muhitga bo‘lgan huquqi deganda** – yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolaning oilaga farzandlikka va tarbiyaga (patronatga), vasiylik va homiylikka olinishi hamda oilaviy bolalar uyida tutingan ota-onalar qaramog‘ida ularning oilasida, birga yashashi va tarbiyalanishi hamda voyaga yetishi tushuniladi.

7. Mamlakatimizda bola huquqlarini tartibga soluvchi qonun normalarining terminologiyasini xalqaro qonunchilik normalarida qo‘llanilgan “bola”, “voyaga yetmagan”, “voyaga yetmaganlar”, “farzand”, “o‘spirin” kabi huquqiy terminlarni amaldagi qonun normalarida unifikatsiyalashtirish va faqat “bola” iborasini qo‘llash maqsadga muvofiq.

**8. Topilgan bola** – otasi yoki onasi tomonidan o‘z bolasini boqish, tarbiyalash yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlab, odamlar gavjum (bozorlar, istirohat bog‘lari, ko‘p qavatli uylarning yo‘laklari, avtobus bekatlari) bo‘lgan yoki qarovsiz chekka (daraxtzor, qurilish obyektlari, dala) joylarda topilgan shaxsi noma‘lum bola.

**9. Qoldirib ketilgan bola** – ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan bolani boqish, tarbiyalash yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlab yoxud boshqa sabablar bilan tug‘ruq yoki davolash muassasasidan uch kundan ortiq muddatda uzrli sabablarsiz olinmagan bola.

## **II. Qonunchilik normalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar:**

1. Mamlakatimizda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, nogironligi bo‘lgan bolalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari hamda tarqoq qonun hujjatlarini kodifikatsiyalashtirish orqali birlashtirilishi maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “*Bola huquqlari kodeksi*”, “*Bolalar ombudsmani to‘g‘risida*”gi va “*Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida*”gi qonunlarni qabul qilish tavsiya etiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi birinchi qism quyidagi mazmundagi o‘n uchinchi xatboshi bilan to‘ldirish taklif etiladi:

**“Vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda oilaviy bolalar uylari va Bolalar uylariga hamda vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni moddiy,**

## **huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib borish”.**

3. O'zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to'g'risida”gi Qonuniga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) Vasiylik va homiylikning asosiy prinsiplari deb nomlangan 5-moddasi quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

**“vasiylik va homiylikka oid ma'lumotlarni sir saqlash”;**

2) Vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari deb nomlangan 7-modda birinchi qismi alohida uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

**“O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi”;**

3) quyidagi mazmundagi 12<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

**12<sup>1</sup>-modda. Milliy gvardiyaning vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlari**

Milliy gvardiya o'z vakolatlari doirasida:

vasiylik va homiylik sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

vasiylik va homiylik sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda ularni amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta'minlaydi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga munosib turmush va ta'minot sharoitlarini ta'minlaydi;

tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda mehribonlik muassasalaridagi bolalarning bosqichma-bosqich farzandlikka, vasiylikka (homiylilik, patronat) berish ishlarida ishtirok etadi;

vasiylikka yoki homiylikka berilgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlaydi;

vasiylikka va homiylikka berilgan bolalar uchun ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etadi;

vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda oilaviy bolalar uylari va Bolalar uylariga hamda vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini o'rganadi, shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish, ularni ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo'llash choralarini ko'rib boradi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

4. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuniga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 24-modda oltinchi qismi quyidagi alohida beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

**“Oilaviy bolalar uyiga joylashtirish”;**

2) 27<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy

muassasalariga, **oilaviy bolalar uylariga, oilaga tarbiyaga (patronat)**, o'rtta maxsus, ta'lim muassasalariga tarbiyaga berilgan kundan e'tiboran to'liq davlat ta'minotida bo'ladi.

5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 150-modda nomi va birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**150-modda. Yetim bolalar yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish.**

**Yetim bolalar yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoxud oilaviy bolalar uyiga yoki oilaga tarbiya (patronat)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.**

2) quyidagi mazmundagi 22<sup>1</sup> -bob bilan to'ldirilsin:

**22<sup>1</sup>-BOB. Oilaviy bolalar uyiga joylashtirish** *(to'liq matni qonun loyihasida keltirilgan)*

6. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuniga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 9-modda birinchi qismi quyidagi mazmundagi o'n uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

**"Milliy gvardiya organlari";**

quyidagi mazmundagi 17<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

2) **17<sup>1</sup>-modda. Milliy gvardiya organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari.** *(to'liq matni qonun loyihasida keltirilgan)*

7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) JPKning 39<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismi o'n uchinchi bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo'linmalari – **Milliy gvardiyaga birlashtirilgan muassasalarda yetim bola va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan va ular tomonidan sodir etilgan ishlar** hamda qonun bilan ularning ish yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha.

2) 381<sup>2</sup>-moddasi birinchi qismi 5-bandini quyidagi jumlar bilan to'ldirish:

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo'linmalari – Jinoyat kodeksining **125-moddasi**, 250<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismida (bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari) va 259<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan ishlar bo'yicha.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4375-sonli Qaroriga 52-bandi to'rtinchi xatboshisi yangi tahrirda bayon etilishi taklif etiladi. *(to'liq matni Prezident qarori loyihasida keltirilgan)*

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 269-son Qarori bilan tasdiqlangan

“O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi nizom”ning 39-bandi uchinchi xatboshisi, 90-bandi ikkinchi xatboshisiga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilsin: *(to‘liq matni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Qarori loyihasida keltirilgan)*

**10.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risidagi nizom”ga 2-ilova “Oilaga tarbiyalash uchun berilgan (patronat) bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta‘minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash tartibi”ning 10-bandi, 47-bandi ikkinchi xatboshisi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qarori bilan tasdiqlangan “Mehribonlik uyi to‘g‘risida”gi nizomning 43-bandi ikkinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi 451-son Qarori bilan tasdiqlangan “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risidagi nizom”ning 53-bandi birinchi xatboshisi yangi tahrirda to‘ldirilishi maqsadga muvofiq. *(to‘liq matni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Qarori loyihasida keltirilgan)*

**11.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta‘lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 775-sonli Qarorning 55-bandi yangi tahrirda bayon etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 767-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylariga o‘quvchilarni qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning “Nomzodlarga beriladigan imtiyozlar” nomli 5-bobi, 39-bandi, 5-xatboshi bilan to‘ldirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 1-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi bakalavriatining kunduzgi va sirtqi ta‘lim shakllariga nomzodlarni tanlash va o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 958-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi bakalavriatining kunduzgi ta‘lim shakliga nomzodlarni tanlash va o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ning “Nomzodlarga beriladigan imtiyozlar” 7-bobi 62<sup>1</sup>-bandi bilan to‘ldirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti bakalavriati va magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 365-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ning Nomzodlarga beriladigan imtiyozlar 4-bobi 61<sup>1</sup>-bandi bilan to‘ldirilishi taklif etiladi. *(to‘liq matni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Qarori loyihasida keltirilgan)*

### **III. Milliy gvardiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan xulosa va tavsiyalar:**

1. Shvetsiya, Yaponiya, Bahrayn tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham bolalarni har qanday tazyiqdan himoyalash, ularni qiziqtirgan barcha savollarga javob berish,

ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish maqsadida Milliy gvardiya organlari huzurida ishonch telefonlari joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Mamlakatimizda o'z farzandidan voz kechish niyatida bo'lgan shaxslar tomonidan farzandlarini o'ldirish yoki xavf ostida qoldirish holatlarini oldini olish maqsadida, Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tuman-shahar tug'ruq komplekslarida ota-ona haqidagi ma'lumotlarni sir saqlagan holda bolani topshirish imkoni yaratilgan "Mehribonlik joylari" (baby box)larni tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Milliy gvardiya tashabbusi bilan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari ishtirokida "harbiy qismda bir hafta" yoki "jazoni ijro etish muassasasida bir kun" kabi tadbirlarini o'tkazish.

4. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari va manfaatlarini ishonchli himoyalash maqsadida, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodimi)lari hamda Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari bilan "Bola huquqlari" bo'yicha fakultativ o'quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

5. Mehribonlik uyi direktori o'rinbosari lavozimiga yuridik ma'lumotga ega bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim)larni tayinlanishi, oilaviy bolalar uyiga, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga (patronatga) berilgan yetim bolalarga psixolog yoki pedagoglarni biriktirilishi maqsadga muvofiq.

6. Joylardagi bolalarni himoya qilish shu'ba bosh mutaxassisining ish hajmi ko'pligi sababli, zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan ishlarni ijrosi ortga surilib kelinganligi uchun, bolalarni himoya qilish shu'balarning shtat birliklari sonini 2 tadan 4 nafargacha oshirish.

7. Mehribonlik va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, aniq, tabiiy va boshqa fanlarni o'qitishni yo'lga qo'ygan hamda sport to'garaklari tashkil etgan Jamoat xavfsizligi universitetining professor-o'qituvchilariga universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy lavozim maoshiga qo'shimcha haq to'lash amaliyotini joriy etish tavsiya etiladi.

8. Mamlakatimizda bola huquqlari hamda manfaatlari yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan hamda sohani rivojlantirish ishlariga munosib hissa qo'shib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini taqdirlash maqsadida, "Bola huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishonini ta'sis etish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ УНИВЕРСИТЕТА  
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
DSc. 32/30.12.2020. Yu.74.01**

---

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИКРАМОВ ШЕРЗОД РАХИМДЖАНОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ  
ГВАРДИИ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ ДЕТЕЙ-СИРОТ  
И ДЕТЕЙ, ОСТАВШИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ**

12.00.07. – Судебная власть. Прокурорский надзор. Организация деятельности правоохранительных органов. Адвокатура.

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философских наук (PhD) по юридическим наукам

Ташкент – 2024

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/Yu952.**

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-сайте Университета общественной безопасности Республики Узбекистан ([www.jxu.uz](http://www.jxu.uz)) и Информационного-образовательного портала «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Джураев Рустам Мирзаевич**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

**Официальные оппоненты:** **Джураев Ихтиёр Бахтиёрович**  
доктор юридических наук, профессор

**Джураева Анора Заппаровна**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

**Ведущая организация:** **Правоохранительная академия Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_: \_\_\_\_ часов на заседании разового научного совета DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 по присуждению ученых степеней при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан (адрес: 100109, Ташкентская обл. Зангиатинский район, поселок Чорсу. Тел: 998971 230-32-71; факс 99871 230-32-50 [jxu@umail.uz](mailto:jxu@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (зарегистрирован за № \_\_\_\_\_) (адрес: 100109, Ташкентская обл. Зангиатинский район, поселок Чорсу. Тел: 998971 230-32-71; факс 99871 230-32-50).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года)

**М.Х.Рустамбаев**

Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

**Н.И.Хайриев**

Научный секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

**М.Б.Усманов**

Председатель Научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире актуальное значение имеет защита детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, обеспечение их прав и интересов. По данным ЮНИСЕФ, «...в мире насчитывается более 140 миллионов детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей»<sup>1</sup>, «из них 2,7 миллиона живут в школах-интернатах»<sup>2</sup>.

«В 2021 году количество смертей детей-сирот или детей, оставшихся без попечения родителей, в возрасте от 10 до 19 лет превысило 46 000 в год, что эквивалентно смерти одного ребенка каждые 11 минут»<sup>3</sup>. Данные цифры указывают на актуальность защиты прав и интересов детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, и разработки мер, направленных на улучшение их жизни.

В международном рейтинге «Kids Right Indeks» уровень обеспеченности прав детей в мире и стремление стран реализовать права детей оцениваются по таким критериям, как создание благоприятной среды для жизни, здоровья, образования, защиты ребенка и прав детей. Согласно данного рейтинга по итогам 2022 года Узбекистан занял 88-е место из 182 стран (среди них Исландия (1), Швеция (2), Финляндия (3), Казахстан (20), Туркменистан (63), Россия (92), Кыргызстан (93), Таджикистан (105-е место))»<sup>4</sup>. Это актуализирует необходимость проведения исследований, направленных на совершенствование деятельности Национальной гвардии по защите прав и интересов детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей.

В нашей стране на электронной платформе «Мехр дафтари», которая была внедрена в целях изучения и решения проблем детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, а также реализации их мечты и устремлений, «зарегистрировано 7526 детей, при этом только 756 их обращений решены положительно»<sup>5</sup>. При изучении жизни 3 637 бывших воспитанников в возрасте от 18 до 30 лет за последние 11 лет, было установлено, что они сталкивались с различными трудностями в период адаптации к обществу, в частности, за этот период 1473 выпускника не трудоустроено, у 1584 молодых людей не было жилья, 2588 человек не создали семью, 22-скончались, 43-привлечены к уголовной ответственности, 347-выехали за границу»<sup>6</sup>.

Анализ вышеприведенных статистических показателей требует проведения научных исследований в этой области и разработки новых подходов к защите прав и интересов детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей.

<sup>1</sup> [https://www.unicef.org/media/media\\_45279.html](https://www.unicef.org/media/media_45279.html) – дата обращения: 29.12.2022 г.

<sup>2</sup> <https://www.unicef.org/protection/children-in-alternative-care-> дата обращения: 12.05.2023 г.

<sup>3</sup> The state of the world 's children 2021 on my mind – Promoting, protecting and caring for children's mental health // <http://www.unicef.org/sowc>

<sup>4</sup> <https://www.kidsrights.org/research/kidsrights-index/>- дата обращения 10.02.2023г.

<sup>5</sup> Худойберганава Д.З. О совершенствовании системы государственной поддержки детей-сирот и детей, лишенных родительской опеки // материалы Республиканской научно-практической конференции. - Т.:, 2022. – С 425.

<sup>6</sup> Из протокола № 31 о расширенном собрании в виде видеоселектора Министерства махалли и поддержки семьи от 6 декабря 2021 года.

Данная диссертационная работа в определенной степени послужит реализации задач, определенных в законах Республики Узбекистан, Семейном кодексе Республики Узбекистан (1998 г.), «О гарантиях прав ребенка» (2008 г.), «Об опеке и попечительстве» (2014 г.), «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» (2020 г.), Указе Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения гарантий прав ребенка» (2021 г.), постановлениях Президента Республики Узбекистан «О мерах по внедрению кардинально обновленной системы воспитания детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей» (2021 г.), «О мерах по внедрению новой системы государственной поддержки детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей» (2021 г.), постановлениях Кабинета Министров «Об утверждении нормативно-правовых актов по реализации Закона Республики Узбекистан «Об опеке и попечительстве» (2014 г.), «О мерах по дальнейшему усилению социальной защиты детей-сирот и детей, лишенных родительской и иной законной опеки» (2020 г.), и иных нормативно-правовых актов.

